

“Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining Termiz shahar bosqichi bo’lib o’tdi



“Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining Termiz shahar bosqichi bo’lib o’tdi. Respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti tashabbusi bilan tashkil etib kelinayotgan “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivali yangi iste’dodlarni kashf etib, ular iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilib kelmoqda. Kuni kecha san’at va adabiyotning barcha yo’nalishlarini o’zida qamrab olgan festivalning Termiz shahar bosqichi g’oliblarini taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi. O’tkazilgan festivalning Termiz shahar bosqichida yosh iste’dod egalari o’z imkoniyat va mahoratlarini namoyon etib, g’olib va faol ishtirok etganlar Termiz shahar hokimligi, O’zbekiston yoshlar ittifoqi Termiz shahar Kengashi va Termiz shahar madaniyat bo’limi tomonidan taqdirlanishdi. Festival g’oliblari viloyat bosqichida qatnashish uchun yo’llanmani qo’lga kiritishdi.